

“ALYANS AUTO” MChJda 2025 yil 2 chorakda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida UMUMIY HISOBOT

I. Jamiyatning Korruptsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot.

2025 yil 2- chorakda “Alyans Auto” MChJda quyidagi Korruptsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan ishlar amalga oshirilgan:

Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish, ishlab chiqarish va sifat nazorati jarayonlarining shaffofligi va standartlashtirilganligini o‘rganish, xavflarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jamiyatning barcha xodimlariga “Alyans Auto” MChJ tomonidan qabul qilingan “Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi mavzusida 2025 yil 2- chorakda o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazildi.

Xodimlarning ishga qabul qilish jarayoni va xodimlarning shaxsiy yig‘ma jildlarini avtomatlashtirish maqsadida elektron hujjat almashish platformasida xar bir xodimning shaxsiy profilini yaratish ishlari olib borildi. Bunda kadrlarga oid masalalarda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining joriy etilishi, xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklarasiyani to‘ldirish, ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni va aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va uni tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan choralar to‘g‘risidagi ma’lumotlar raqamlashtirilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jamiyat korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi standart talablariga javob berishi yuzasidan jamiyatda ishlovchi uchta xodim ISO 37001:2016 sertifikatlariga ega.

Ichki lokal xujjatlarni takomillashtirish maqsadida Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida Nizom, shuningdek, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tavsiyalariga muvofiq, jamiyat xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash ishlab chiqildi .

Mehnat sharnomalarida Korruptsiyaga qarshi shartlarni kiritgan holda na’munaviy yangi tahririni tayyorlandi va tatbiq etildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar.

“Alyans Auto” MChJda quyidagi komplaens nazoratiga oid siyosat, protsedura va Nizomlar qabul qilingan:

“Alyans Auto” MChJning 2023 yil 4 oktyabrdagi 15-ICH sonli buyrug‘i bilan:

1. “Alyans Auto” MChJning “Poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” siyosati;
2. “Alyans Auto” MChJning “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash” uslubiyoti;
3. “Alyans Auto” MChJning “Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha” siyosati;
4. “Alyans Auto” MChJning aloqa kanalari orqali qoida buzarliklar to‘g‘risida kelib tyshgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish” reglamenti;
5. “Alyans Auto” MChJda “Xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha” yo‘riqnoma;
6. “Alyans Auto” MChJning “Biznes xamkorlarini kompleks tekshirish” prosedurasi;
7. “Alyans Auto” MChJga “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha” yo‘riqnomasi;
8. “Alyans Auto” MChJning “Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish” uslubiyoti;
9. “Alyans Auto” MChJda “Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining xolati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim yetish bo‘yicha” Nizomi;
10. “Alyans Auto” MChJning “Xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish” protsedurasi;
11. “Alyans Auto” MChJning “Biznes xamkorlarining odob-axloq” Kodeksi;
12. “Alyans Auto” MChJning “Xayriya va tijorat xomiyligi bo‘yicha” siyosati;
13. “Alyans Auto” MChJning “Jinoyatdan olingan daromadlarni legalashtirishga (yuvishga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish” siyosati;
14. “Alyans Auto” MChJning “Sanktsiyalar va eksport nazorati” siyosati;
15. “Alyans Auto” MChJning “Sovg‘alar, mexmondustlik, safar va tadbirlarga taklifnomalar to‘g‘risida”gi Nizomi;
16. “Alyans Auto” MChJga “Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi;

17. "Alyans Auto" MChJning "Odob-axlok komissiyasi to'g'risida"gi Nizomi;
18. "Alyans Auto" MChJ xodimlarning "Odob-axloq" qoidalari;
19. "Alyans Auto" MChJda "Korruptsiyaga oid xuqubuzarlik xaqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi;
20. "Alyans Auto" MChJning "Jamiyat xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risi"dagi Nizomi;
21. "Alyans Auto" MChJning "Komplaens xizmati to'g'risida"gi Nizomi qabul qilingan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xujjatlar jamiyatning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

"Alyans Auto" MChJ tomonidan korruptsiyaviy xavf-xatarlar quyidagi sohalar bo'yicha tahlil qilingan:

"Alyans Auto" MChJning birlashgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korruptsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati va korruptsiyaga qarshi kurash dasturi ("Yo'l xaritasi") va uning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar 2025 yil uchun platformaga yuklangan.

"Alyans Auto" MChJning 2025 yilda korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurash dasturi hamda Korruptsiya xavfiga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlar ro'yxati shakllantirildi.

IV. Amalga oshiriladigan korruptsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari va manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.

"Alyans Auto" MChJga 2025 yil 2- chorak ish faoliyati davrida bir nafar yangi xodim ishga qabul qilingan.

Shuningdek, jamiyatda ishlovchi barcha xodimlarga manfaatlar to'qnashuvi yillik deklaratsiyalari to'ldirilgan.

"Alyans Auto" MChJda manfaatlar to'qnashuvi yillik deklaratsiyalarini o'rganishlar amalga oshirilganida manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanmadi.

Korruptsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot sharnomalariga kiritish.

Jamiyatda barcha shartnomalarida korruptsiyaga qarshi shartlar nazarda tutilgan, bundan maxsus axborot portallaridagi elektрон savdo platformasida tuziladigan shartnomalar mustasno;

Xozirgi kunda kontragent tomonidan korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilishi xolatlari aniqlanmagan.

Kontragentlarni tekshirish.

“Alyans Auto” MChJda 2025 yil 2- chorakda kontragentlarni “Biznes hamkorlarini Kompleks tekshirish” prosedurasi belgilangan tartib asosida tekshirish ishlar amalga oshirish yo‘lga quyilmoqda .

Ishga qabul qilingan nomzodlarni tekshirish.

“Alyans Auto” MChJga 2025 yil 2- chorak ish faoliyati davrida bir nafar fuqaro ishga qabul qilingan.

V. Ta’lim va kommunikatsiya.

Xususan 2025 yil 2- chorakda jamiyatda seminar va treninglar o‘tkazilgan. Treninglar yakuni bo‘yicha bayonnomalar va o‘quv varoqlari rasmiylashtirilgan.

VI. Korruptsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlar.

“Alyans Auto” MChJda Korruptsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi ma’lumotlarni oluvchi aloqa kanallari mavjud bo‘lib, ushbu aloqa kanallari orqali xabarlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat.

Idoraviy korruptsiyaga qarshi tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;
OAV monitoringi;

Tashkilot xodimlarining korruptsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

Korruptsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Tashkilotdagi korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat.

Jamiyatda amalga oshiriladigan tekshiruvlar doimiy ravishda amalga oshiriladi va kamchilik topilganda tegishli choralar ko'riladi hamda ular hujjatlashtiriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

"Alyans Auto" MChJda 2025 yil 2- chorak ish faoliyatiga oid hujjatlari bilan tanishib chiqilganda xato va kamchiliklar aniqlanmagan.

IX. Xulosalar.

Asosiy jamiyatning korruptsiyaga-qarshi qurashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar bu:

Biznes reja bajarilishini nazoratga olish;

Tannarxni kamaytirish;

Jarayonlarni avtomatlashtirish;

Departament faoliyatini rivojlantirish;

Idoraviy korruptsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

OAV monitoringi;

Tashkilot xodimlarining korruptsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

Korruptsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Tashkilotdagi korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya yetilishi ustidan nazoratga olish hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha xizmat o'z ishini sifatli bajarib kelmoqda. Korruptsiyaga qarshi kurash qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, ichki idoraviy hujjatlar takomillashtirgan. Komplaens xizmati xodimi bilim va ko'nikmalari tizimli ravishda oshirib borilmoqda.

X. Korruptsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

2025 yil 2- chorakda amalga oshirilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, quyidagilar taklif qilinadi.

Moliya va iqtisodiy sohasida xavflarni oldini olish maqsadida to'langan (undirilgan) moliyaviy jarimalarni o'rganish va tegishli tartibda aybdorlarga chora ko'rilish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish va kiritilishini tashkillashtirish borasida korxonalar sonini oshirish;

Jarayonlarni avtomatlashtirish maqsadida "Buyurtmalarni avtomatlashtirish va xarid jarayonini tizimlashtirish" onlayn platformasini joriy etishga qaratilgan ishlar olib borishda;

"Buyurtmalarni avtomatlashtirish va xarid jarayonini tizimlashtirish" onlayn platformasini yaratish ;

"Buyurtmalarni avtomatlashtirish va xarid jarayonini tizimlashtirish" onlayn platformasini "Alyans Auto" MChJda ishga tushirish;

Komplaens xizmati faoliyatini rivojlantirish maqsadida jamiyatda korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish bo'yicha trening va seminarlar tashkil qilish;

Xalqaro sertifikatni olish yuzasidan kerakli bilimlar va malakalar borligini tekshirish yuzasidan kontragent bilan muzokaralarni olib borish va jamiyatda sertifikat olishni ta'minlash;

Ichki lokal xujjatlarni takomillashtirishda;

Komplaens bo'yicha shartlarni kiritgan Mehnat sharnomalarini joriy etish;

Moliyaviy ta'minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etmaslik holatlari mavjudligi ehtimolini tahlil qilishda jamiyatda qonunchilik talablariga muvofiq jamiyat faoliyati tizimli ravishda auditdan o'tkazishni qonunchilik talablariga muvofiq o'z vaqtida olib borishni ta'minlash.

Komplaens xizmati
bosh mutaxassisi



N.Karadjanov